



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'R TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA

YANG O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCE.UZ

INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DAVRIYLIGI: 2018-2023



SPEKTROSKOPIYA -
MATERIYANI BILISH USULI



TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQT.uz
WWW.CONFERENCES.UZ



YANVAR
№48

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJUY OLY TALIM MUASSASALARI PROFESSOR-OQTUVIGHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLU TALABALAR

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
9-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-9**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-9**

ТОШКЕНТ-2023



“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 48-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 17 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

ИҚТІСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

1. Abdugaffarova Dinara Xusan qizi	
DAVLAT MOLIYASI: ZAMONAVIY MUAMMO VA YECHIMLAR	7
2. Raxmatov Alisher Azimovich	
PENSIYA TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR	9
3. Bannapov Feruzbek Mirzarakmonovich	
YASHIL OBLIGATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	11
4. Jumabayeva Kumush Botir qizi	
O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI PENSIYA TIZIMIDA XORIJ TAJRIBASI	13
5. Majidov Amirkhon Abdumalik o'g'li	
GAROV MAQSADIDA KO'CHMAS MULK QIYMATINI BAHOLASH: XORIJ TAJRIBASI.....	15
6. Мейлиев Жасур Зулфикарович	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	17
7. Туйчиев Анваржон Мухторжонович, Умарова Дилфуза Раҳматиллаевна	
ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЧИЛИҚДА КОНЦЕССИЯ ШАКЛИНИНГ АҲАМИЯТИ	19
8. Хабиева Азиза Рашидовна	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	22



ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

DAVLAT MOLIYASI: ZAMONAVIY MUAMMO VA YECHIMLAR

Abdugaffarova Dinara Xusan qizi
Toshkent Moliya instituti 2-kurs magistranti
Telefon: +998909327223
dinaraabdurazzaqova2404@gmail.com

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida davlatning strategik maqsadlariga erishish uchun yo'naltirilgan islohotlarni davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirishga asoslangan holda amalga oshirish talab etilmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy sharoitda davlat moliya siyosatini amalga oshirish va iqtisodiyotni moliyaviy tartibga solish muammolariga bir necha yechimlarni keltirgan.

Kalit so'zlar: davlat moliyasimoliya siyosati, moliyaviy resurslar, soliq-budget sohasi, fiskal tavakkalchilik.

Keng ma'noda moliya siyosati moliyaviy munosabatlari (moliya) sohasidagi maqsadli harakatlar majmuidir. Moliyaviy siyosat moliya tizimining har bir bo'g'inida va har bir darajasida amalga oshiriladi

Aksariyat tahlilchi-iqtisodchilarining fikriga ko'ra, zamonaviy innovatsiyalar sharoitida O'zbekiston Respublikasi moliyaviy siyosatining asosiy masalalari quyidagilardan iborat: maksimal ruxsat etilgan moliyaviy resurslarni tashkil qilish uchun shart-sharoitlar mavjudligi; moliyaviy resurslarning davlat nuqtai nazaridan oqilona taqsimlanishi va sarflanishini tasdiqlash; iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni moliyaviy usullar bilan tartibga solish va rag'batlantirishni tashkil etish; moliyaviy mexanizm vositalarini ishlab chiqish va uni strategiyaning o'zgaruvchan maqsad va vazifalariga muvofiq ishlab chiqish; samarali moliyaviy boshqaruvning operativ va maksimal darajada biznes tizimini tashkil etish.

Davlat moliyasini boshqarish tizimida islohotlarni amalga oshirish davlat moliyasini jamlash va taqsimlashga doir masalalarni tartibga soluvchi normativ va uslubiy bazani takomillashtirish bilan birga olib borilishi lozim.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish doirasida budget tizimi budgetlarini shakllantirish, tayyorlash, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish jarayonidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish choralarini ko'rildi.

Soliq-budget sohasidagi shaffoflikni, nazoratni va budget hisobi sifatini oshirish uchun tashqi auditdan o'tkazish funsiyalarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, shuningdek, budget mablag'larini aniq vazirlik va idoralar kesimida tasdiqlash orqali parlament nazoratini kuchaytirish lozim.

Davlat moliyasining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash va oldindan prognoz qilish imkoniyatini oshirish uchun fiskal tavakkalchiliklar tahlilini va ularning oshkor etish jarayonini yaxshilash choralarini ko'rish lozim.

Fiskal tavakkalchiliklarni tahlil qilish va boshqarish davlat sektorida soliq-budget siyosatiga oid qarorlarni qabul qilish jarayoni samarali muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtda fiskal tavakkalchiliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etish va boshqarish yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

Asosiy makroiqtisodiy tavakkalchiliklar to'g'risidagi ma'lumotlarning oshkor qilinishi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qarz olish ustidan qat'iy nazoratning mavjudligiga hamda O'zbekiston Respublikasi hukumati nomidan berilgan davlat qarzlarini va kafolatlari to'g'risidagi jami ma'lumotlar oshkor etilishiga qaramasdan, fiskal tavakkalchiliklarning alohida yo'nalishlari oshkor qilinmaydi va hisobi yuritilmaydi.

Fiskal tavakkalchiliklarni tahlil qilish va oshkor etishni o'z ichiga olgan holda uzoq muddatli



soliq-budget barqarorligini baholash mahalliy davlat hokimiyati organlari va keng jamoatchilikda olib borilayotgan soliq-budget siyosatining barqarorligi to‘g‘risida tasavvur hosil qiladi va, zarur hollarda, soliq-budget siyosatiga o‘z vaqtida zarur tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Davlat boshqaruvi sektori juda katta miqdordagi moliyaviy aktivlarni tasarruf etadi. Ushbu aktivlarning asosiy qismini xorijiy valyuta va depozitlar, davlat korxonalariga berilgan kreditlar, shuningdek, davlat korxonalari kapitalida davlat ishtiroki doirasidagi aktivlar tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat qarzi va davlat kafolatining umumiy miqdori e’lon qilib boriladi, biroq budget hisobotida davlat aktivlari va majburiyatları va ular bilan bog‘liq tavakkalchiliklar aks ettirilmaydi.

Shu munosabat bilan aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish va ularni boshqarishning samarali tizimini, shu jumladan davlat sektorida shakllantirishda boshqaruvning moliyaviy balansini tayyorlash jarayonini yaxshilash bo‘yicha choralar ko‘rish talab etiladi.

Strategiyani amalgalashishdan kutilayotgan natijalar:

- davlat moliyasi to‘g‘risida ishonchli, shaffof, dolzarb va muddatli kompleks ma’lumotlar mavjud bo‘ladi;
- o‘rta muddatli budgetni rejalshtirish to‘laqonli tadbiq etiladi;
- o‘rta muddatli istiqbolda makrofiskal prognozlash va tahlil qilishning barqaror va bashorat qilinadigan tizimi yaratiladi;
- mahalliy budget parametrlarini shakllantirish va tasdiqlash jarayonida vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimliklarning budget sohasidagi vakolatlari va mustaqilligi kengaytiriladi va o‘z navbatida ularning mas’uliyati sezilarli darajada oshiriladi;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mos ravishda budget mablag‘larini taqsimlash samaradorligi oshiriladi, soliq-budget siyosatining maqsadlariga erishishning samaradorligi va natijadorligini baholashning son va sifat ko‘rsatkichlari joriy etiladi;
- Davlat budgeti ijrosi jarayonida samaradorlikka va natijadorlikka erishiladi;
- davlat investitsiyalarining samaradorligi va boshqarilishi yaxshilanadi;
- davlat moliya tizimining barqarorligi mustahkamlanadi, soliq-budget tavakkalchiliklari ishonchli baholanadi va minimallashtiriladi;
- davlat qarzini samarali boshqarish tizimi joriy etiladi;
- budget jarayonida jamoatchilik va fuqarolar ishtirokini keng faollashtirish uchun budget ma’lumotlarining oshkorlik darajasi oshiriladi;
- samarali elektron davlat xaridlari tizimi joriy etiladi;
- xalqaro moliya institutlarining reyting va indekslarida O‘zbekistonning o‘rni yaxshilanadi.

Yuqorida qayd etilgan maqsadlar mantiqiy ketma-ketlikdan kelib chiqib shakllanadi. Aksariyat sohalarda asosiy e’tibor amaldagi davlat moliyasini boshqarish tizimining bazaviy elementlarini yoki uslubiyotini takomillashtirishga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Toshmurodova B., "Korxonalarni dolzarb masalalar bo'yicha menejment" monografiyasi; Toshkent-2017.
2. <https://mint.intuit.com/blog/planning/inflation-rate-formula/>
3. www.uzdaily.com



PENSIYA TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Raxmatov Alisher Azimovich

O'zbekiston Respublikasi

Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Telefon nomer: +99897 724 24 90

Annotatsiya: Mazkur tezisda Pensiya va nafaqalarni hisobga olish, tayinlash hamda to'lashni tashkil etish, zamonaviy innovatsion dasturiy maxsulotlardan foydalanish orqali Pensiya jamg'armasining barcha tarkibiy bo'linmalari o'rtasida samarali elektron hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar orqali fuqarolarga yaratilayotgan qulayliklar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: pensiya, nafaqa, nogiron, Pensiya jamg'armasi, suyunchi puli, dafn marosimi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng kulamli islohotlar Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasini chetlab utayotgani yo'q. Jumladan: Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlami bo'lgan pensiya va nafaqa oluvchilarga yanada qulayliklar yaratish maqsadida bir qator interaktiv xizmatlarni joriy etib kelmoqda.

2022 yil 29 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev (2022 yil 29 apreldagi PQ-128-son) qaroriga muvofiq 2022-yilning 1-maydan boshlab pensiyalar, nogironlik va nafaqalar miqdori 1,12 barobarga oshirildi Ushbu hujjatga ko'ra, 2022, 1- maydan boshlab pensiyalarning eng kam miqdori: pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori (PBM)- oyiga: 324 000 so'm, yoshga doir eng kam pensiya miqdori oyiga: 633 000 so'm, nogironlik pensiyalari ish stoji to'liq bo'limgan chog'dagi nogironlik pensiyasining eng kam miqdori oyiga 698 000 so'm, zarur ish tajribasiga ega bo'limgan keksalar va nogiron fuqarolar uchun imtiyozlar oyiga: 500 000 so'm, bzaviy hisoblash miqdori (BHM) 1 iyundan- 300 000 so'm (u soliq to'lovlar, yig'imlar, jarimalar, davlat bojlari, ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari uchun to'lovlar va tadbirkorlik faoliyatining muayyan turi uchun patent (litsenziya) miqdorini aniqlashda va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa to'lovarda ishlatalidi) hujjatda qayd etilgan (1).

Ishlovchi pensionerlarga pensiyalar to'lovini to'g'ridan-to'g'ri Pensiya amg'armasi orqali amalga oshirish tizimi joriy qilindi. Buning natijasida 162 mingdan ortiq pensionerga pensiya to'lovi oyma-oy amalga oshirilib, har oyda 28 mingdan ortiq korxona va tashkilotning talabnomalarni Pensiya jamg'armasiga taqdim etish va pensionerga to'lab berish bilan bog'liq ovoragarchiliklari bartaraf etildi (2).

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 maydagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi davlat xizmatlari ko'rsatishning ayrim ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, joriy yilning iyun oyidan boshlab fuqarolar bola tug'ilganda (suyunchi puli) va dafn marosimi uchun nafaqalarni olish uchun Pensiya jamg'armasi yoki ish joyiga murojaat qilmasdan, tug'ilganlik yoki vafot etganlik holatini Davlat xizmatlari markazlari (FHDYO)da ro'yxatdan o'tkazish jarayonida biryo'l ariza berish tizimi joriy qilinadi. Natijada har yili o'rtacha 800-900 ming nafar fuqaroning Pensiya jamg'armasi yoki ish joyiga murojaat qilishi bilan bog'liq ovoragarchilikka barham beriladi (3).

Ushbu qarorga binoan barcha ishlovchi va ishlamaydigan fuqarolar suyunchi puli va dafn marosimi uchun nafaqalarni olish uchun Davlat xizmatlari markazlariga yoki “YAIDXP(YEPIGU)” portali orqali elektron shaklda murojaat qiladi. Bunda fuqarolar suyunchi puli va dafn nafaqasini olish uchun o'zlariga qulay bo'lgan Xalq banki filialini tanlagan holda, nafaqalarni ushbu filial orqali olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Korxona va tashkilotlar tomonidan ishlovchi fuqarolarga suyunchi puli va dafn marosimi nafaqalari to'lovi uchun Pensiya jamg'armasiga talabnomalar taqdim etilmaydi. Natijada har oyda o'rtacha 6-7 mingta korxona va tashkilotning talabnomalarni Pensiya jamg'armasiga taqdim etish va fuqarolarga to'lab berish bilan bog'liq ovoragarchiligi bartaraf etildi.

Bola tug'ilganda beriladigan suyunchi puli yoki dafn marosimi nafaqasi uchun Pensiya jamg'armasi yoki ish joyiga murojaat qilishga ulgurmagan fuqarolar nafaqalarni tayinlash uchun Davlat xizmatlari markazlariga yoki “YAIDXP (YEPIGU)” portali orqali elektron shaklda murojaat qiladi. Bunda bola tug'ilganda suyunchi nafaqasini tayinlash uchun bola tug'ilgandan



boshlab 6 oy muddatda va dafn marosimi uchun nafaqa tayinlashga fuqaro vafot etgandan boshlab 60 kun muddatda murojaat qilish lozim (4).

Korxona va tashkilotlar tomonidan 16 yoshgacha nogiron bolalarning ota-onalariga qo'shimcha dam olish kunlari haqining to'lanshi va pensiya (nafaqa) tayinlanmagan, biroq uy-joy kommunal to'lovlari bo'yicha kompensatsiya olish huquqiga ega bo'lganlarga kompensatsiya uchun talabnoma taqdim etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Internet matiriallari malumotlaridan foydalanildi.
2. Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari.
3. FHDYO ma'lumotlari.
4. Yagona interaktiv Davlat xizmatlari partali “YAIDXP” ma'lumotlari.



YASHIL OBLIGATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Bannapov Feruzbek Mirzarakmonovich,
“Uzbek Leasing International” AJ Qo’shma Korxonasi
Tel: +998909983377
f.bannapov@yandex.ru

Annotatsiya: tezisda yashil obligatsiyalar emissiyasi, S&P yashil obligatsiya indeksi tahlili amalga oshirilgan. Yashil obligatsiyalar yoki iqlim obligatsiyalari global kapital bozorida o’zining yurishini 2009 yilda Jahon Banki tomonidan kiritilgandan so’ng boshlagan. Jahon Banki tomonidan ushbu obligatsiyaning global kapital bozoriga kiritilishining asosiy maqsadi global ekotizimdagи ekologik va ijtimoiy balansni saqlab qolishdir. Yashil obligatsiyalar nafaqat AQSh, Yevropa va Xitoydagi institutsional investorlar balki xususiy investorlarda ham katta qiziqish bilan kutib olindi va uning investorlar uchun jozibadorligi bir qator tebranishlar bilan bo’lsada, yuqori darajada saqlanib turibdi.

Kalit so‘zlar: yashil obligatsiya, S&P yashil obligatsiya indeksi, yashil moliyalashtirish, yashil obligatsiya qaytimi, greenium, S&P 500, obligatsiya

Dunyo yalpi ichki mahsuloti bir qator inqirozlar, urushlar va boshqa kutilmagan tebranishlarga qaramasdan o’rtacha olganda yillik 3-4% ga oshmoqda. Bu o’z navbatida har bir avlod almashganda yalpi ichki mahsulotning bir barobar oshishiga olib kelmoqda. Ammo, dunyodagi iqtisodiy o’sish barqaror qolishi uchun yetarli ishlar amalga oshirmayapti. dunyodagi bunday iqtisodiy o’sish asosan rivojlangan davlatlar hissasiga to‘g’ri kelmoqda, shuningdek, ushbu iqtisodiy o’sish ona tabiatni vayron qilish hisobiga amalga oshirilmoxda. BMT tomonidan 2019-yilda e’lon qilingan hisobotda Barqaror Rivojlanish Maqsadlari 2030 qabul qilingan bo‘lib, unda dunyodagi iqtisodiy o’sish iqlim o’zgarishlarni hisobga olishi kerakligi ta’kidlangan. Ammo, turli mamlakatlar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga ko‘ra, ko‘plab davlatlar 2030-yilgacha mo‘ljallangan maqsadlarga erisha olmaydi [1]. Orqada qolayotgan eng muhim yo‘nalishlardan biri sifatida kapital bozorining yashil iqtisodiyot talablariga to‘liq javob beradigan tarzda transformatsiya bo‘lishi kechikayotganligini keltirish mumkin. Albatta, ushbu sohada bir qator ijtimoiy ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, kapital bozori mahsulotlari va korporativ moliyalash mexanizmlari ko‘plab davlatlarda hali ham “yashil” bo‘lgani yo‘q.

Yashil obligatsiyalar yoki iqlim obligatsiyalari global kapital bozorida o’zining yurishini 2009 yilda Jahon Banki tomonidan kiritilgandan so’ng boshlagan. Jahon Banki tomonidan ushbu obligatsiyaning global kapital bozoriga kiritilishining asosiy maqsadi global ekotizimdagи ekologik va ijtimoiy balansni saqlab qolishdir. Yashil obligatsiyalar nafaqat AQSh, Yevropa va Xitoydagi institutsional investorlar balki xususiy investorlarda ham katta qiziqish bilan kutib olindi va uning investorlar uchun jozibadorligi bir qator tebranishlar bilan bo’lsada, yuqori darajada saqlanib turibdi.

Yashil obligatsiyalar bu obligatsiyalarning shunday turiki, ular mavjud yoki yangi yashil loyihalarni to‘liq yoki qisman moliyalashtirish yoki qayta moliyalashtirish uchun qo’llaniladi. Yashil loyihalar deganda atrof-muhitga va ekologiyaga zararsiz bo‘lgan, ya’ni qayta tiklanuvchi energiya, ekologik toza transport vositalari, yashil inshootlar qurish, barqaror chiqindi boshqaruvi, yer resurslaridan barqaror foydalanish, biologik xilma-xillik va toza ichimlik suvi kabi loyihalar tushuniladi. Yashil obligatsiyalar bilan uni muomalaga chiqaruvchi o’zining yashil loyihalarini moliyalashtirishi mumkin bo‘ladi. Investorlar esa o’z investitsiyalari uchun o’zgarmas qaytimni foiz ko‘rinishida olishadi. Yashil obligatsiyalar ham barcha korporativ obligatsiyalar singari ishlaydi, ammo uni muomalaga chiqaruvchi yashil obligatsiyalardan tushgan mablag‘larni faqat yashil loyihalar uchun ishlatish mas’uliyatini oladi.

Yashil obligatsiyalarning ijtimoiy va ekologik ta’sirlarini tadqiq etgan ilmiy ishlarning dastlabkilaridan biri sifatida Zerbib tomonidan 2019 yilda yozilgan ilmiy ishni keltirish mumkin. Zerbib yashil obligatsiyalar bozorining talab qismini tahlil qilgan bo‘lib, yashil obligatsiyalar uchun belgilanadigan premiyalarga investorlarning ekologik afzalliklari qanday ta’sir etishini empirik tadqiq etgan [2]. Muallif yuqori sifatli ekologik muhit uchun talabning oshishi yashil obligatsiyalar uchun talabni oshishida muhim rol o‘ynaganini ta’kidlaydi. Yashil obligatsiyalarning taklif tomoni bo‘yicha 2018-yilda tadqiqot olib borgan E.Agliardi va R.Agliardilar ham xuddi shunday xulosaga



kelishgan. Mualliflarning fikriga ko‘ra aksiyadorlarning salbiy iqlim o‘zgarishlaridan xabardorligi va hukumat tomonidan ekologik jihatdan foydali bo‘lgan investitsiyalar uchun imtiyozli soliqlar joriy etishi yashil obligatsiyalarning narxiga ijobiy ta’sir qiladi [3]–[5]. Xitoydagи listingdan o‘tgan firmalarning faoliyat natijalariga yashil obligatsiyalarning ta’siri tahlil etilgan tadqiqotga ko‘ra, ushbu firmalarning korporativ ijtimoiy mas’uliyati oshganligi va yanada ko‘proq ekologik va ijtimoiy chora-tadbirlarni oshirganligi kuzatilgan [5]–[7]. Shuningdek, yashil obligatsiyalar savdosining yo‘lga qo‘yilishi mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya muqobillaridan foydalanish va uning diffuziyasini oshishiga olib keladi [8].

Yuqoridaagi tadqiqotlardan ko‘rish mumkinki, yashil obligatsiyalar korxonalarning ekologik va ijtimoiy muammolarga e’tiborini kuchayishiga va iqlim o‘zgarishlariga befarq bo‘lmaslikka chorlamoqda. Shuningdek, iqtisodiy siyosatlarni ishlab chiquvchi vakolatli organlar tomonidan yashil obligatsiyalarni iqlim o‘zgarishlariga qarshi dastak sifatida qo‘llanilayotganligini ko‘rish mumkin. Iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashishda yashil obligatsiyalarni ommalashtirish uchun investorlarning manfaatlari himoya qilinishi kerak, bu o‘z navbatida yashil obligatsiyalarga bo‘lgan talabning barqaror bo‘lishiga olib keladi [9]. Iqtisodiy chora-tadbirlar ishlab chiquvchi vakolatli organlar tomonidan yashil obligatsiyalarning iqlim o‘zgarishlariga ta’sirini to‘g‘ri baholay olinishi yashil obligatsiyalarning ekologiyaga va ijtimoiy hayotga ijobiy ta’siri ko‘lamini oshishida muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1] A. Sinha, S. Mishra, A. Sharif, и L. Yarovaya, «Does green financing help to improve environmental & social responsibility? Designing SDG framework through advanced quantile modelling», *J Environ Manage*, т. 292, с. 112751, 2021.
- [2] O. D. Zerbib, «The effect of pro-environmental preferences on bond prices: Evidence from green bonds», *J Bank Financ*, т. 98, сс. 39–60, янв. 2019, doi: 10.1016/J.JBANKFIN.2018.10.012.
- [3] E. Agliardi и R. Agliardi, «Financing environmentally-sustainable projects with green bonds», *Environ Dev Econ*, т. 24, вып. 6, сс. 608–623, дек. 2019, doi: 10.1017/S1355770X19000020.
- [4] C. Flammer, «Corporate Green Bonds», *SSRN Electronic Journal*, март. 2018, doi: 10.2139/SSRN.3125518.
- [5] C. Anh Tu, T. Sarker, и E. Rasoulinezhad, «Factors Influencing the Green Bond Market Expansion: Evidence from a Multi-Dimensional Analysis», *Journal of Risk and Financial Management*, 2020, doi: 10.3390/JRFM13060126.
- [6] L. Jinru, Z. Changbiao, B. Ahmad, M. Irfan, и R. Nazir, «How do green financing and green logistics affect the circular economy in the pandemic situation: key mediating role of sustainable production», *Economic Research-Ekonomska Istraživanja*, т. 35, вып. 1, сс. 3836–3856, 2022.
- [7] D. Gilchrist, J. Yu, и R. Zhong, «The limits of green finance: A survey of literature in the context of green bonds and green loans», *Sustainability*, т. 13
- [8] J. C. Reboredo, «Green bond and financial markets: co-movement, diversification and price spillover effects», *Energy Econ*, т. 74, сс. 38–50, авг. 2018, doi: 10.1016/j.eneco.2018.05.030.
- [9] A. Sinha, S. Mishra, A. Sharif, и L. Yarovaya, «Does green financing help to improve environmental & social responsibility? Designing SDG framework through advanced quantile modelling», *J Environ Manage*, т. 292, авг. 2021, doi: 10.1016/J.JENVMAN.2021.112751.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PENSIYA TIZIMIDA XORIJ TAJRIBASI

Jumabayeva Kumush Botir qizi
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi tinglovchisi
jumaboyevakumush1136@gmail.com
Tel: +998994321136

Annotatsiya: Pensiya ta'minoti bugungi kunda har qanday demokratik davlatda yashovchi insonlarning ajralmas huquqi hisoblanadi. Ammo turli davlatlar pensiya tizimlari bir biridan o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Davlat pensiya ta'minotini takomillashtirishda ko'pgina xorij tajribalari asos bo'ladi. Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning jadal rivojlanishi bilan birga, iqtisodiy islohotlarda pensiya tizimini isloh qilish va jahonda mavjud pensiya tizimi modellari keltirilgan hamda xorij tajribasini qo'llagan holda majud pensiya tizimidagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Pensiya tizimi, pensiya, nafaqa, avlodlar birdamligi, yoshga doir pensiya, nogironlik pensiyasi, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi, mehnat layoqati, pensionerlar, iqtisodiy bog'liqlik koeffitsienti, majburiy pensiya sug'urtasi, ixtiyoriy pensiya tizimi.

Bugungi kunda xorijiy mamlakatlar pensiya fondlari amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, dunyo mamlakatlari aholisining demografik o'zgarishi, iqtisodiyotning rivojlanishi sari aholining turmush tarzi yaxshilanishi natijasida ularning o'rtacha umr ko'rish yoshining oshib borayotganligi va mexnat faoliyati bilan band bo'lgan aholiga nisbatan pensionerlar ulushining oshib borayotganligi natijasida pensiya fondlarini moliyaviy ta'minlashda yuzaga kelayotgan muammolar avlodlar birdamligiga asoslangan pensiya tizimidan jamg'arib boriladigan nodavlat pensiya fondlarini tashkil qilish va ularning moliyaviy daromadlarini oshirishda jamg'arma mablag'larini investision faoliyatini shakllantirish va ularni samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishni taqazo qilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiq etilayotgan 2022-2026-yillarda amalga oshirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son., asosiy maqsadi “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilga asoslangan, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosidagi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida amalga oshirishga oid davlat dasturlarida ushbu tizimni rivojlantirishga doir bir qancha vazifalar belgilab qo'yilgan bo'lib, taraqqiyot strategiyasi IV bobining 53 va 54 –maqsadlari aynan pensiya ta'minoti tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni o'z ichiga oladi. Ushbu islohotlar insonga munosib turmush sharoitlarini yaratishdan iborat.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, pensiya ta'minoti tizimi - bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolarni qarilik, kasallik, mehnat qobiliyatini to'la yoki qisman yo'qotish, boquvchisini yo'qotganlik, ishsizlik holatlarida moddiy ta'minlanishlariga bo'lgan konstitutsion huquqlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlashi lozim bo'lgan asosiy ijtimoiy himoya institutlaridan biridir. Olinadigan mablag'lar miqdori sug'urta (mehnat) stoji davomiyligi, ish haqi miqdori, mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga bog'liq bo'ladi va qonun asosida tartibga solinadi¹.

Xalqaro amaliyot ko'rsatishicha, aksariyat mamlakatlarda taqsimlanuvchi davlat hamda majburiy va ixtiyoriy jamg'arib boriladigan – aralash pensiya tizimlari amal qilmoqda. Pensiya tizimining aralash turi moliyaviy barqarorlik va to'lanayotgan pensiya darjasini nuqtai nazaridan samarali hisoblanadi².

Pensiya ta'minotining eng muhim iqtisodiy funksiyasi mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Pensiya ta'minoti-davlatning ijtimoiy ta'minot siyosatining muhim va ajralmas qismidir. Shu nuqtai nazaridan, ijtimoiy ta'minot tizimi jamiyatda ijtimoiy adolatlilikni ta'minlash, siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va ta'minlab turishning


1 Li A. O'zbekiston Respublikasi moliya huquqi: Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: "TDYU", 2006. 241-b.

2 Федотов А.И. Анализ моделей построения пенсионных систем // Труды ИСА РАН. 2008. № 38. С. 168–173.



asosiy shart-sharoitlaridan biridir.

Hozirda pensiya ta'minotini tizimini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:



1-rasm. Pensiya tizimlarining ko‘rinishlari

Bugungi kunda dunyoning ko‘plab davlatlarida pensionerlar yetarli darajada turmush darajasi bilan ta’milangan. Shuning uchun aksariyat mamlakatlarda aholi ijtimoiy himoya qilish mexanizmlaridan biri bo‘lgan pensiya ta’minotini isloq qilish jarayoni ketmoqda.

Xalqaro mehnat tashkilotining talabariга muvofiq, fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini barqaror rivojlanishi uchun badal to‘lovchilar sonining pensiya oluvchilarga o‘zaro nisbati 1:4 darajada bo‘lishi ko‘rsatilgan¹. Biroq, bugungi kunda O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 1 : 3,7 ga teng.

Germaniya pensiya tizimi 3 pog‘onali ya’ni, davlat pensiya, korporativ pensiya va shaxsiy pensiya tizimlari amal qilmoqda.

Chexiya respublikasida 3 pog‘onali tizim ya’ni, davlat, jamg‘ariladigan va xususiy pensiya ta’minoti mayjud. Kopchilik xorijiy mamlakatlarda 3 pog‘onali pensiya tizimi amal qiladi ya’ni davlat, jamg‘ariladigan va xususiy pensiya tizimlari.

Jahonda pensiya ta’minoti muammolarini hal etishning hozirgi bosqichida pensiya tizimi va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish sohasida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Barcha rivojlangan mamlakatlarida kuzatilayotgan aholining keksayib borishi, ish bilan band aholiga nisbatan pensionerlar sonining doimiy oshib borishi, pensioner va ishlovchilar soni o‘rtasidagi o‘zaro nisbatning kattaligi pensiya ta’minoti tizimining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda shu kabi muammolarni inobatga oлган holda sohani rivojlantirish uchun quyidagi takliflarga bildirib o‘tmoqchimiz:

- fuqarolar qariganda ularni moddiy jihatdan yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida xorij tajribasini o‘rgangan holda xususiy pensiya fondlarini (davlat kafolati ostida) tashkil qilish maqsadga muvofiq;
- pensiyaga chiqish uchun talab qilinadigan yoshni saqlagan holda kech pensiyaga chiqishni rag‘batlantirish maqsadga muvofiq;
- korporativ pensiya va nodavlat pensiyalar joriy etilgan davlatlar tajribalarini o‘rganish va ular faoliyatini tartibga solishning samarali tizimini yaratish hamda amaliyotga tadbiq qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Li A. O‘zbekiston Respublikasi moliya huquqi: Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: “TDYU”, 2006. 241-b.
2. Федотов А.И. Анализ моделей построения пенсионных систем // Труды ИСА РАН. 2008. № 38. С. 168–173.
3. Конвенция Международной Организации Труда “О минимальных нормах социального обеспечения” (№102). – 32 с.

¹ Конвенция Международной Организации Труда “О минимальных нормах социального обеспечения” (№102). – 32 с.



GAROV MAQSADIDA KO'CHMAS MULK QIYMATINI BAHOLASH: XORIJ TAJRIBASI

Majidov Amirxon Abdumalik o'g'li

TDIU huzuridagi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari ilmiy tadqiqot markazi tayanch doktoranti
amirxon23@mail.ru
+998909252923

Annotatsiya: 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasidagi 13-maqсади: Mulk huquqlarining daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash maqsadida keltirilgan eng birinchi vazifasi bu - xususiy mulk daxlsizligi va himoyasi kafolatlarini kuchaytirish, mulkiy, shu jumladan er uchastkasiga bo'lgan huquqlarni so'zsiz ta'minlash vazifasiga alohida e'tibor qaratilganligi ushbu sohadagi islohotlarga hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilayotganligini anglatadi.

Kalit so'zlar: ko'chmas mulk, mol-mulk, garov, bank kredit, baholash institutlari, bozor bahosi, garov obyektinglikvidligi.

Mamlakatimizda keng qamrovli amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ko'chmas mulk bozorini rivojlantirishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Zero, mazkur bozor milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, aholining barcha qatlamlari turmushi bilan bevosita aloqadordir. Shuningdek, ko'chmas mulk turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlar rivojlanishining hamda xo'jalik faoliyati yuritishining asosidir.

Xorij amaliyotida kredit uchun qo'yilayotgan garov ta'minotini baholashda uning likvidligi, bozor bahosi, bozor kon'yukturasini o'zgarishi natijasida sotish imkoniyati hamda investitsion jozibadorligiga alohida e'tibor qaratiladi¹.

SHuningdek, kredit oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs bankni tanlagandan so'ng garovga qo'yayotgan ta'minotni baholash jarayonini amalga oshiradi. CHunki, banklarning kreditlash siyosati va garov ta'minotini baholashga qo'yayotgan talablari bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Bundan tashqari, kreditlovchi bank kredit olish bo'yicha taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqishi jarayonida qo'shimcha ma'lumotlar zarur bo'lishi yoki baholash bo'yicha tayyorlangan xulosaning dolzarbligi yo'qolishi mumkin.

Xorij amaliyotida bank kredit ta'minotini baholashning aniq belgilab qo'yilgan tamoyillari joriy etilmagan. Biroq, garov ta'minotini baholash jarayoniga e'tibor beradigan ayrim tamoyillar mavjudki, bank kreditini olish uchun baholanayotgan garov ta'minoti mazkur tamoyillarga javob bermagan hollarda bank kredit shartnomasini imzolamaydi².

Xususan, baholash jarayonida quyidagi asosiy tamoyillar bajarilishi maqsadga muvofiq:

- baholanyotgan obyektni kreditning asosiy garovi sifatida yuridik va jismoniy jihatdan neytralligini ta'minlanganligi;
- baholash jarayonida obyektning likvidligiga ta'sir etuvchi barcha omillarning inobatga olinganligi;
- garov ta'minotini sotishning bir necha variantlarining mavjudligi;
- baholanayotgan obyektning bahosiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan huquqiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatlar xolisona baholanganligi;
- baholash jarayonida qo'llaniladigan metodlar va yondashuvlar bo'yicha vujudga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar va farqlar konservativ va yuqori talab asosida yondoshish kabilalar shular jumlasidandir³.

1 International Valuation Standards, Eighth Edition, International Valuation Standards Committee, 2007. 23 p.

2 Лобанова Е.И. Оценка объектов арбитражного управления: Учебное пособие для слушателей курсов подготовки специалистов по арбитражному управлению, 5-е изд. перер. и доп. Новосибирск: НОУ ВПО САФБД, 2013.-386с.

3 Miller N. G., Jr. and Markosyan S. The academic roots and evolution of real estate appraisal // Appraisal Journal. April 2003.



Xorij amaliyotining yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, banklar baholash bozorida yuqori reyting va nufuzga ega bo‘lgan, shuningdek baholash hisobotlariga shubha uyg‘otmaydigan baholovchi tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Bank kredit uchun qo‘yilgan garov ta’minoti baholovchi tomonidan o‘rnatilgan baho asosida hisoblangan qiymatga teng bo‘ladi. Ko‘chmas mulklar bo‘yicha joriy etiladigan diskont banklarda bir xil aniqlanmaydi, shu bilan birga diskontni aniqlashda ko‘chmas mulknii joylashgan joyi, infratuzilmaning rivojlanganligi, zamonaviyligi kabi jihatlariga e’tibor qaratiladi.

Baholashning xalqaro standartlari baholash standartlari bo‘yicha xalqaro komitet (IVSC) tomonidan ishlab chiqiladi. Ushbu komitet xalqaro tashkilot bo‘lib, 1981-yilda tashkil topganva o‘zida 50 dan ortiq mamlakatlarning professional baholovchilar tashkilotini birlashtiradi. AQShda ham, Evropada ham ushbu baholash standartlari yoki normativlari mustahkam qonunlar to‘plami sifatida qaralmaydi. Shuning uchun IVSCning asosiy maqsadi barcha davlatlar qo‘llay olishi mumkin bo‘lgan xalqaro standartlarni ishlab chiqishdir.

Xorijiy mamlakatlarda baholash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish amaliyotini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, baholash munosabatlari bilan bog‘liq jarayonlarning bugungi kundagi holati uzoq davrlar, sinovlar hamda baholash xizmatiga bo‘lgan extiyojlarining o‘zgarishi natijasida rivojlangan va takomillashib kelmoqda.

Shuningdek, baholash institutlari xizmatlarining sifati mamlakat iqtisodiy barqarorligining ta’milanganligi va milliy valyutaning to‘lov qobiliyatining mustahkamligi bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki, mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi mol-mulk va xom-ashyo bozorlaridagi talabiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa baholovchilar tomonidan o‘rnatilgan baholarning keskin tebranmasligini oldini oladi.

Xorijiy amaliyotda bank garovini baholashning asosiy tamoyillari va kredit uchun qo‘yiladigan ta’minot turlarini o‘rganish natijasida quyidagi xulosa va tavsiyalarni shakllantirdik:

- xorijiy amaliyotda bank garov ta’minotini baholash bo‘yicha etarli darajada tajriba va ko‘nikmalar shakllangan bo‘lsada, baholash bo‘yicha qat’iy belgilab qo‘yilgan tamoyillar mavjud emas. Asosiy e’tibor, garov obyektining likvidligi, bozor bahosi, bozor kon’yukturasini o‘zgarishi natijasida sotish imkoniyati hamda investitsion jozibadorligiga qaratiladi;
- xorij amaliyotida baholash jarayonida qo‘llaniladigan axborotlarning ochiqligi va shaffofligi tajribasini mahalliy baholash amaliyotida kengroq joriy etish maqsadga muvofiq;
- xorijiy va mahalliy baholovchilar o‘rtasida amaliy va nazariy hamkorlikni qo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Foydalilanigan adabiyotlar ro’yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son .PF-60-сон 28.01.2022. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida (lex.uz)
2. International Valuation Standards, Eighth Edition, International Valuation Standards Committee, 2007. 23 p.
3. Лобанова Е.И. Оценка объектов арбитражного управления: Учебное пособие для слушателей курсов подготовки специалистов по арбитражному управлению, 5-е изд. перер. и доп. Новосибирск: НОУ ВПО САФБД, 2013.-386с.
4. Miller N. G., Jr. and Markosyan S. The academic roots and evolution of real estate appraisal // Appraisal Journal. April 2003.



ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Мейлиев Жасур Зулфикарович

“Ўзмиллийбанк” АЖ Ходимлар билан ишлаш

департаменти директори

Телефон: +99890 939-23-33

jzmeiliev@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Тижорат банкларининг яхши фаолият кўрсатиши ва самарали кўрсаткичларга эга бўлиши бевосита унинг молиявий барқарорлигига боғлиқ. Мазкур мақола мамлакатимиз тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини таъминлашда фоизли даромадлар, хусусан улар таркибида кредитлаш амалиёти ва инвестиция операцияларининг амалий аҳамиятини ҳамда назарий қарашларни кўрсатиб беради.

КАЛИТ СЎЗЛАР: соф фоизли маржа, молиявий барқарорлик, фоизли ҳаражатлар, инвестиция, даромад, ссуда, кредит портфели, актив, брутто кредитлар, капитал рентабеллиги.

Тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини таъминлашнинг илмий-назарий асосларини тадқик қилиш ва унинг амалий аҳамиятига баҳо бериш банклар фаолиятининг барқарорлигини таъминлашнинг муҳим методологик масалаларидан бири ҳисобланади.

АҚШлик машҳур иқтисодчи олим, проф. Ж.Синкининг хуносасига кўра, тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини таъминлашда соф фоизли маржа кўрсаткичи муҳим ўрин тутгани ҳолда, соф фоизли маржа банк активлари миқдорига тескари пропорционал бўлиб, кредитлар ва депозитлар бозоридаги юқори даражадаги рақобат унинг даражасига кучли таъсир кўрсатади¹.

Ж.Синкининг ушбу хуносаси Ўзбекистон Республикаси банк амалиёти учун муҳим амалий аҳамиятга эга. Чунки, республикамизнинг тижорат банкларида соф фоизли маржа кўрсаткичининг меъёрий даражаси (4,5 %) таъминланмаган. Масалан, 2021 йилнинг 31 декабрь ҳолатига кўра, соф фоизли маржа кўрсаткичи Ташқи иқтисодий фаолият Миллий банкида 3,2 фоизни, Асакабанкда 1,6 фоизни ташкил этди².

Халқаро тикланиш ва тараққиёт банки экспертларининг фикрига кўра, тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш учун тижорат банклари ялпи даромадларининг умумий ҳажмида фоизли даромадларнинг салмоғи камидаги 70 фоиз бўлиши керак³.

Ҳақиқатдан ҳам, тижорат банкларининг фоизли даромадларининг асосий қисми уларнинг асосий фаолият турлари бўлган кредитлаш фаолияти ва инвестицион фаолиятидан олинади. Шу сабабли, тижорат банклари ялпи даромадининг 70 фоиздан кам бўлмаган қисмини фоизли даромадлар ташкил этиши уларнинг асосий фаолият турлари яхши ривожланганлигидан далолат беради.

В.Уоскиннинг фикрича, тижорат банкининг молиявий барқарорлигини баҳолашда активларнинг рентабеллиги ва капиталнинг рентабеллиги кўрсаткичларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир⁴.

Тижорат банклари активларининг рентабеллиги соф фойданинг брутто активларга нисбатан даражасини кўрсатади ва халқаро банк амалиётида тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини баҳолашда қўлланиладиган асосий кўрсаткичлардан бири

1 Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – С.338.

2 Муаллиф томонидан ТИФ Миллий банки ва Асакабанкнинг баланс маълумотлари асосида ҳисобланган.

3 Макнотон Д. Банковские учреждения в развивающихся странах. Пер. с англ. – Вашингтон: ИЭР, 1994. – С.71.

4 Уоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.:ЛЕНАНД, 2019. – С.34.



хисобланади.

Шунингдек, капиталнинг рентабеллиги ҳам тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини тавсифловчи асосий кўрсаткичлардан бири хисобланади ва унинг меъёрий даражаси 15% қилиб белгиланган.

С.Кумок амалга оширган тадқиқот натижалари кўрсатди, амалда тижорат банкларида капиталнинг етарлилигини камайтириш хисобига капиталга тўғри келадиган фойда мөъенини оширишнинг иложи йўқ. Чунки, жидид қаробат ва кредит ресурсларининг қимматлиги капиталнинг активларга нисбатан оптимал даражасини таъминлашга тўсқинлик қилади. Шу сабабли, капиталга тўғри келадиганфойда меъёрини оширишнинг бош захираси бўлиб, активларнинг қайтими даражасини ошириш хисобланади¹.

О.Воюшинанинг фикрига кўра, тижорат банкларининг молиявий барқарорлигига баҳо беришда кредит операцияларининг даромадлилигини тавсифловчи қуйидаги кўрсаткичларни таҳлил қилиш муҳимdir:

- фоизли даромадларнинг ссуда хисобрақамларининг ўртача қолдигига нисбати;
- қисқа муддатли ссудалардан олинган даромадларнинг қисқа муддатли ссудаларнинг ўртача қолдигига нисбати;
- алоҳида кредит гурухлари бўйича олинган даромадларнинг ушбу гурух кредитларининг ўртача суммасига нисбати;
- узоқ муддатли ссудалардан олинган фоизли даромадларнинг узоқ муддатли ссудаларнинг ўртача қолдигига нисбати².

О.Воюшина томонидан тижорат банклари кредитларининг даромадлилигини тавсифловчи муҳим кўрсатичлар келтирилган. Бироқ, тижорат банклари кредитларининг даромадлилигини баҳолаш аниқлигини ошириш имконини берадиган битта кўрсаткич О.Воюшинанинг эътиборидан четда қолган. Бу эса, кредитлар ва кредитлардан олинган фоизли даромадларнинг ўсиш суръатлари ўртасидаги мутаносиблик кўрсаткичидир. Айнан, ушбу кўрсаткич кредитларнинг даромадлилик даражасини кредит қуилмаларига монандлигини таъминланганлиги ёки таъминланмаганлигини кўрсатади.

Б.Бердияровнинг холосасига кўра, республикамиз тижорат банкларининг молиявий барқарорлигига салбий таъсир кўрсатаётган омилларнинг мавжудлигини кўрсатди. Хусусан, банклар активлари ва капитали рентабеллиги кўрсаткичларининг нисбатан паст эканлиги, тижорат банклари томонидан соғ барқарор молиялаштириш меъёри коэффициенти бўйича меъёрий талабларни бажарилмаётганлиги ана шундай омиллардан саналади³.

Б.Бердияровнинг мазкур холосаси аниқ амалий маълумотлар таҳлилига асосланган бўлиб, унда банкларда молиявий барқарорликни тавсифловчи кўрсаткичларнинг меъёрий талаблари бажарилмаётганлиги асослаб берилган.

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сонли “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги фармони//ҚҲММБ:06/205992/0581-сон. 13.05.2020 й.

2. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – С.338.

3. Макнотон Д. Банковские учреждения в развивающихся странах. Пер. с англ. – Вашингтон: ИЭР, 1994. – С.71.

4. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.:ЛЕНАНД, 2019. – С.34.

5. Бердияров Б.Т. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларининг ликвидлилиги ва тўлов қобилиятини таъминлаш масалалари. И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 29.

1 Кумок С.И. Анализ деятельности коммерческих банков. – М. : Вече, 1996. – С. 153.

2 Воюшина О.Б. Доходность банка как один из основных показателей его экономического положения//Известия высших учебных заведений. - Поволжский регион, 2014. - 1. – С. 168-172.

3 Бердияров Б.Т. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларининг ликвидлилиги ва тўлов қобилиятини таъминлаш масалалари. И.ф.д. дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 29.



ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЧИЛИКДА КОНЦЕССИЯ ШАКЛИНИНГ АҲАМИЯТИ

Туйчиев Анваржон Мухторжонович

Тошкент давлат транспорт университети катта ўқитувчиси

Телефон: +998 (97) 455 45 47

anvarjontuychiyev@gmail.com

Умарова Дилфуза Раҳматиллаевна

Тошкент давлат транспорт университети катта ўқитувчиси

Телефон: +998 (97) 733 71 33

umarova_dilfuza_3103@mail.ru

Аннотация: Ҳозирги кунда қўплаб мамлакатларда давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигини таъминлашда давлат-хусусий шерикликнинг концессия шаклидан фойдаланилмоқда. Мазкур мақолада давлат-хусусий шерикликнинг концессия шакли ва унинг аҳамияти очиб берилади.

Калит сўзлар: концессия, давлат, ҳамкорлик, хусусий сектор, давлат ва хусусий сектор, давлат-хусусий шериклик

Давлат ва хусусий сектор ўртасидаги ҳамкорликнинг замонавий тизими давлат мулкчилигининг барча соҳаларини ўзида қамраб олган ҳамда жамият манфаатларига хизмат қилувчи давлат ва бизнеснинг ўзаро муносабатининг имкониятлари, зарурияти ва оқибатлари ҳақидаги аралаш иқтисодиёт назарияси қоидаларига асосланади. Бу тизим айниқса, иқтисодиётни ва давлат мулкини бошқариш механизмини тубдан ислоҳ этиш даврида муҳим аҳамият касб этади.

Маълумки, давлат-хусусий шериклик — давлат шериги ва хусусий шерикнинг муайян муддатга юридик жиҳатдан расмийлаштирилган, давлат-хусусий шериклик лойиҳасини амалга ошириш учун ўз ресурсларини бирлаштиришига асосланган ҳамкорлиги. [1]

Бугунги кунда концессиялар давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигининг муҳим таркибий қисмига айланиб бормоқда. Улар давлат монополиясини кучсизлантириш, либераллаштириш ва хусусийлаштириш воситаларидан бири ҳисобланади. [2]

Иқтисодиёт ўзагини ташкил этувчи алоҳида олинган тармокларда, жумладан, транспорт тармоғида концессиялар хусусий инвестицияларни жалб этиш ҳамда хўжалик юритишнинг аввалдан мавжуд бўлган монопол соҳаларига бозор муносабатлари элементларини жорий этиш шакли бўлиб саналади.

Концессиялар – давлат-хусусий шерикликнинг бугунги кундаги энг ривожланган, мажмуавий ва асосийси, бозор иқтисодиётига мос келадиган шаклларидан биридир. Концессия — давлат-хусусий шерикликнинг шаклларидан бири бўлиб, бунда давлат хусусий шерикка концессия шартномасида назарда тутилган хўжалик фаолиятининг муайян турини амалга ошириш учун рухсатнома берган ҳолда мол-мulkни ва ер участкаларини тақдим этади. [1]

“Концессия” сўзи лотинча “concessio” – рухсатнома (инглизча “concession”) сўзидан олинган бўлиб, имтиёз, келишув, битим, енгиллаштириш каби маъноларни англатади. У жуда кўп турли таърифларга эга бўлган иқтисодий тушунчалар қаторига киради ва маънолар доирасини қамраб олади. Концессия асосида ташкилот, фаолият тури ёки хизмат кўрсатиш хуқуқини бериш мумкин. Баъзида эса концессия деб, концессия шартномасининг ўзини ҳам тушуниш мумкин. Бу тушунча аниқ бир таърифга эга эмас, чунки уни қўллаш мумкин бўлган соҳалар жуда кўп. Ушбу атама маъмурият томонидан рухсатнома бериш шаклидаги жараёнларни ифодалаш учун қўлланилади.

Концессиялар, ҳамкорлик муносабатларининг бошқа шаклларидан фарқли равища:

❖ кўп мақсадларни кўзлайди ва узоқ муддат давомида амал қиласади. Бу эса ҳар иккала томонга – ҳам давлатга, ҳам хусусий секторга ўзаро фаолиятни стратегик режалаштириш ва истиқболни белгилаш имконини беради;

❖ хусусий сектор инвестициявий, маъмурий-хўжалик ва бошқарув қарорларини қабул килишда катта ва ҳаттоқи баъзи ҳолларда тўлиқ эркинликка эга бўлади;

❖ концессион лойиҳаларда хавф-хатар ва таваккалчиликлар унинг иштирокчилари



ўртасида тенг бўлинади. [3]

Умумий олиб қаралганда, концессия деганда амалдаги қонунчиликка ҳамда давлат ёки ҳокимият органлари ва хусусий юридик ёки жисмоний шахс ўртасидаги шартномага оид муносабатлар тизими тушунилади. Ушбу муносабатлар тизими доирасида концедент сифатидаги ҳокимият органи концессионерга ўзининг функцияларидан бир нечтасини амалга ошириш ҳуқуқини топширади. Бу муносабатлар концессия шартномаси муддати давомида амал қиласди.

Аникроқ қилиб айтганда, амалиётда концессия ўзида давлат обьекти ёки жамият мулкини қонунчиликка мувофиқ шартномада белгилаб қўйилган шартлар асосида қурилиш, модернизациялаш, реконструкция қилиш, фойдаланиш, бошқариш, хизмат кўрсатиш каби мақсадларда концессионерга беришни ифода этади.

Ҳозирда миллий ва хориж илмий адабиётларида ҳамда меъёрий хужжатларида «концессия» тушунчасининг турли хил талқинларга эгалиги биринчи навбатда, концессион муносабатларнинг кўп қиррали эканлиги билан изоҳланади.

Албатта, концессиялар хўжалик юритиши шакли сифатида баъзи бир камчиликлардан ҳам холи эмас. Концессия шартномасига киритилган кўпгина қоидалар давлат ва бизнес муносабатлари замонавий иқтисодиётнинг доимо ўзгариб бораётган шартларига тўлиқ жавоб бера олмаслигини ва етарли даражада эгилувчан эмаслигини кўрсатиб бермоқда.

Жаҳонда бир хилтармоқлар, фаолият соҳалари ва ишлаб чиқариш учун концессияларнинг кенг кўламли муддатлари мавжудлиги кузатилиб, бу турли мамлакатларда кўлланадиган концессия давомийлигини аниқлашга бўлган ёндашувларнинг ҳар хиллигидан келиб чиқади. Аксарият йирик концессиялар учун турли-туман кредит-молия, суғурта ва ўзга институтларни жалб қилиб бажариладиган лойиҳа молиялаштирилишининг маҳсус схемаларини ишлаб чиқиш лозим бўлади. Бунда аксарият ижтимоий жиҳатдан муҳим лойиҳаларда бозорда капитал давлат кафолатлари билан қарз олиниши мумкин. Хусусий ташаббус ҳисобига, давлат қўллаб-қувватлаши ва кафолатлари билан лойиҳанинг молиявий таъминоти доирасида концессиялар молиявий ва ўзга ресурслар жамланиши кўламларини, маблағлар қайта тақсимланишида мослашувчанликни, лойиҳаларнинг инвестициявий жозибадорлиги ва ҳаётийлигини анча ошириш имконини беради.

Концессияларнинг давлат мулкидан тижорат мақсадларида фойдаланишининг шакли сифатидаги мақбулиги кўп жиҳатдан жамиятнинг муносабатига боғлиқ ҳамда улар келтирадиган ижтимоий-иқтисодий самара билан белгиланади. Бунда қатор мамлакатлар ва ишлаб чиқариш инфратузилмасининг тармоқларида (автомобиль ва темир йўллари, портлар, аэропортлар) давлат компаниялари кўринишидаги концессионерларга устуворлик берилади. [4]

Мулкни давлат ихтиёридан чиқаришнинг кўплаб йўллари мавжуд бўлишига қарамай, ҳозирда кўпгина мамлакатлар билвосита хусусийлаштиришни концессиялар ёрдамида ривожлантириш йўлини танладилар. [5]

Концессия муносабатларининг самарадорлиги яна шунда ҳам намоён бўладики, монопол давлат хизматлари бозорида давлат ихтиёрида қолган корхоналар билан рақобатга киришган концессионерлар ҳам пайдо бўладилар. Давлат мулки бўлган корхоналар иқтисодий кўрсаткичлар бўйича янги рақобатчилари – концессионерларга интилиб, бозор конъюнктурасини синчилаб ўрганиш ва уни ҳисобга олишга, сарф-харажатларни камайтириб, самарадорликни оширишга мажбур бўладилар. [6]

Концессиялар, бир томондан, хўжалик вазифаларининг маълум қисмини бизнесга топшириш ҳисобига давлатнинг иқтисодиётдаги иштирокини камайтиришга хизмат қилсалар, бошқа томондан, давлат органларининг концессияга топширилаётган корхоналарни назорат қилиш ва кузатиш бўйича ваколатлари кенгайтирилишга олиб келадилар.

Демак, давлат ва хусусий сектор ўртасидаги ҳамкорликнинг концессион шакли мамлакат иқтисодиетининг ривожланишида муҳим ахамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конуни, 22.01.2021 йилдаги ЎРҚ-669-сон
2. Варнавский В.Г. Концессионный механизм партнерства государства и частного сектора. М.: Московский общественный научный фонд, 2003. - 270 с.
3. Максимов В.В. Государственно-частное партнерство в транспортном секторе:



зарубежный опыт// Международная экономика. 2008. №1. С. 16-26.

4. National legislation database, 11.05.2019, 19.03.537 / 3113-latest; 23.01.2021, 21.03.669.0060-latest)

5. Tuychiev, A. (2021). Scientific approaches to public-private partnership in the transport system of Uzbekistan. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(05), 100-105.

6. DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI MASALALARIGA XORIJU ЁНДАШУВЛАР // Трансформация моделей корпоративного управления в условиях цифровой экономики. 2022. №1.

7. Odilov Ahmadjon Komiljon O‘G‘Li, Umarova Dilfuza Raxmatullayevna, & Ulmasova Lobarxon Odilovna (2022). 4-SANOAT INQILOBI DAVRIDA INSON RESURSLARI MENEJMENTINING ROLI VA UNING KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI. Трансформация моделей корпоративного управления в условиях цифровой экономики, 1 (1), 5-9. doi: 10.24412/cl-36899-2022-1-5-9



ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ

Хабиева Азиза Рашидовна
АО Узсаноатэкспорт
Главный специалист
+998974638693
us42@use.uz

Аннотация: В статье анализируются основные модели корпоративного управления, сформировавшиеся в развитых странах. Рассматриваются главные особенности моделей, ключевые игроки и их функции.

Ключевые слова: корпорация, управление, опыт, развитые страны, высокие технологии, корпоративное управление.

Корпорации развитых стран организуют массовое производство на основе высоких технологий, новейшего оборудования, научной организации труда.

Акционеры американских компаний не имеют никакого влияния на текущие дела корпорации, не определяют уровень дивидендов, не назначают на работу менеджеров. Относительно совета директоров, общепринятыми являются следующие обязанности:

- надзор за процедурами избрания и переизбрания членов совета директоров, руководства и оценка их деятельности;
- оценка стратегии компании;
- оценка финансовой деятельности компании и распределение ее фондов;
- проверка выполнения норм поведения компании и социальных обязательств;
- обеспечение соответствия деятельности компании нормам законодательства.

Главный управляющий или главный менеджер, как правило, является ключевой фигурой всего процесса управления, он принимает все основные решения, опираясь на подчиненных ему менеджеров.

Немецкая модель корпоративного управления значительно отличается от англо-саксонской и японской моделей, хотя и существуют некоторые сходные черты с японской моделью [5].

Акционерный капитал немецких компаний является в высшей мере сконцентрированным.

Банки являются долгосрочными акционерами немецких корпораций, и, подобно японской модели, представители банков избираются в совет директоров. Тем не менее, в отличие от японской модели, где представители банков избираются в совет только в период спада, в Германии представительство банков в совете является постоянным. Три наибольших универсальных немецких банка играют в корпорациях основную роль, а в некоторых областях страны государственные банки являются ключевыми акционерами.

Немецкая модель имеет три уникальные особенности, которые отличают ее от других моделей:

- двухпалатное правление, которое состоит из исполнительного (чиновники корпорации) и наблюдательного совета (рабочие/служащие компании и акционеры) советов;
- узаконенные ограничения прав акционеров относительно голосования, т.е. устав предприятия ограничивает число голосов, которые акционер имеет на собрании, и может не совпадать с числом акций, которыми он владеет [4].

Ключевые участники немецкой модели корпоративного управления - банки и корпоративные акционеры. Как и в японской модели, банк одновременно выступает и акционером, и кредитором, и эмитентом ценных бумаг, и депозитарием, и агентом, который голосует на годовом общем собрании [5].

Немецкие законы проводят четкую границу между непосредственным управлением и надзором. Исполнительный совет в рамках этой модели подчинен наблюдательному. Членами наблюдательного совета могут быть только независимые директора. Как и в США, в Германии независимые директора совмещают свою должность с другой деятельностью [1].

Необходимо особо отметить ту исключительно важную роль, которую играют в странах с развитыми рынками негосударственные институты. Их деятельность формирует



и развивает культуру корпоративного управления, которая цементирует общий каркас системы корпоративного управления, созданный правом. Многочисленные объединения по защите прав акционеров, центры и институты, занимающиеся независимым анализом деятельности менеджеров, подготовкой независимых директоров выявляют проблемы корпоративных отношений [2].

Во Франции корпоративное управление характеризуется следующими чертами:

- Высокая степень концентрации капитала. Корпоративный сектор представляет крупнейшую группу акционеров.

- Некоторые крупнейшие компании принадлежат государству.

- Большое число акционеров не принимает участия в контроле.

- Возможна как одноуровневая, так и двухуровневая структура советов директоров.

В Швеции действует система унитарных (одноуровневых) советов, но в отличие от США законодательно закреплено участие представителей трудового коллектива, а участие менеджмента сведено к включению в совет президента компании.

В Италии даже очень большие компании нередко принадлежат семьям, поэтому крупнейшие акционеры почти всегда являются и менеджерами. Советы директоров являются унитарными [4].

Итак, в данной части исследования на основании системно-комплексного подхода были рассмотрены мировые ведущие модели национального корпоративного управления, в том числе англо-саксонская, японская, немецкая. Были выявлены особенности данных моделей. Но при этом определено, что в мировой экономике сложно встретить чистую модель корпоративного управления, обычно корпоративное управление стран имеет отдельные черты пересиленных моделей.

Список использованной литературы

1. Архипов А.И., Большаков А.К. Экономика. - М., 2006, 840 с.
2. Грязнова А.Г., Думная Н.Н. Макроэкономика: теория и российская практика. - М.: 2006, 678 с.
3. Корпоративное управление: учебное пособие/ под ред. В.Г. Антонова. - 2-е изд. перераб. и доп. - М.: ИНФРА-М, 2010. - 288 с
4. Шейн В.И. Жуплев А.В. Корпоративный менеджмент. Опыт России и США. - М., 2007.
5. Эпштейн М.З. Сравнительный менеджмент. – СПб., 2003

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 9-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2023

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000